

„OLTIN ZANGLAMAS” ROMANIDA KELITIRILGAN MAQOLLAR

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqollar xalq hayotining uzoq yillar davomida orttirgan tajribasi natijasida yuzaga kelgan. Maqollarda hayot haqiqati bilan birgalikda xalq o'tmishi ham aks ettiriladi.

Kalit so'zlar: Shuhrat, „Oltin zanglamas”, maqollar, tilshunoslik, hikmatli so'zlar.

Abstract: Proverbs were created as a result of long years of experience of people's life. In proverbs, together with the reality of life, the past of the people is reflected.

Key words: Fame, "Gold does not rust", proverbs, linguistics, words of wisdom.

Asarlarda xalqning hayoti aks ettiriladi va yozuvchi o'z dilidagi gaplarni chiroyli qolipga solib kitob o'qiguvchilarga yetkazadi. Shuhratning „Oltin zanglamas” romanida ham bir qancha maqollar keltirilgan. Ulardan ko'pchiligi sizga tanish bo'lsa, ko'pchiligini hattoki, eshitmagansiz ham. Maqollar yillar davomida xalq tomonidan sayqallanib bugunga qadar yetib kelgan. Xalqning dono, purhikmat ifodalari, yirik madaniyat arboblari, olimlar, davlat, arboblarning ibratomuz gaplari, xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarni ixcham shaklda ifodalovchi asarlar maqollardir. „Maqol” so'zi arabcha bo'lib, „so'z” demakdir.¹

Sabr so'ngi-sariq oltin (12-b)

Hoy bolam, qulog'ingda bo'lsin: joy olsang qo'ni-qo'shnisini surishtir. Qo'shning tinch sen tinch (17-b)

Puli bor farmon bilan, puli yo'q armon bilan yashaydi. (47-b)

“Itidan bo'lgan qurbonlikka yaramaydi” dedi-yu, emizikli bolani tashlab ketaberdi. (50-b)

Donolar “Yetim qo'zi boqsang, og'zi burning yog' etar, yetim bola asrasang, og'zi burning qon etar” deb bekorga aytmagan. (52-b)

Oyog'i katta sig'ganini, oyog'i kichik sevganini kiyadi. (53-b)

Bir shoir aytgan ekan: “Yolg'onning taxtida shoh bo'lguncha, rostgo'yning chorbog'ida giyoh bo'l”, deb. (66-b)

Ular “o'qigan-guliston, o'qimagan-go'riston” degan maqolni esga olib, shu yil Toshkentni yalpi savodxon shaharga aylantirishga so'z berdilar. (78-b)

Ilgari “O'nta xotin bir qozon qaynata olmaydi” der edilar. (78-b)

kki ryumkadan ichilgandan keyin, g'ilofi bilan qoziqda osig'liq turgan tanburni olib, “Sozli tordan - nozli kuy chiqadi” degandek zerikmasdan sozladi. (82-b)

Sevdiradigan ham til, bezdiradigan ham til. (85-b)

Avval erining ulfatlarini bilish kerak, yaxshi yaxshiga yondashtiradi, yomon yo'ldan adashtiradi. (85-b)

Er xo'rliqi-yer xo'rliigidan yomon. (86-b)

To'g'ri bo'lsang soyang egri tushmaydi. (86-b)

Mayli, qilmish-qidirmish! (98-b)

U payt poylab chalishni mo'ljallab, zahrini dilida, shakarini tilida olib yurdi. (98-b)

Aytib bering, Sodiqjon, do'stning achchiq so'zidan nodon xafa bo'ladi. (102-b)

“Ishtonsizning cho'pdan hadigi bor” degandek, Mirsalimga tegib ketdi. (102-b)

“O'limni o'ylagan imorat solmaydi” degandek, noumid kishi ko'chat o'tqazmaydi. (102-b)

“Omadi ketgan kishining ataladan tishi sinadi” degandek, nima ish qilsa, ketiga ketardi. (113-b)

Bir kun urish bo'lgan yerdan qirq kun baraka ko'tariladi, deyishadi. (115-b)

¹ Sh Sariyev Adabiyot (metodik qo'llanma) Toshkent „Yangi kitob” 2018

Xurlik xotinni, xaroblik hayvonni xunuk qiladi, deb shuni aytadi-da. (116-b)
Faqat ko'nglidan o'tdi: "Qiz xotin- uy xotini, juvon xotin- yo'l xotini!" (119-b)
Tekinning minnati ko'p, mehnatning ziyati, deb hech nolimas, butun umidini o'z bilagi bilan, uzi tilagidan kutar, juda mo'min-qobil odam edi. (132-b)
Ko'chadagi gap-so'zga hadeb kuyib yonavermang, do'st kuyib gapirsa, dushman oshirib gapiradi. (167-b)
Siz hammadan xafa bo'lavermang, doim yomondan yaxshi ko'p, haromdan halol. (167-b)
Haqiqat to'q danak, ko'msa ham ko'karib chiqadi. (201-b)
Ona yurtini yomonlagan xor bo'ladi, odamning yurtiga til tegizadi. (207-b)
O'tgan gap - bo'z ko'ylak, et qichitadi. (210-b)
Qishning qahri toshni yoradi, mehri temirni eritadi. (223-b)
Tinch turgan suv buziladi, oqib turgani yaxshi. (223-b)
Garchand maktabga el boshiga tushgani - er boshiga tushgani deb maqol aytib mamnun kirib kelgan... (254-b)
Osmonga tuflasang betingga tushadi. (277-b)
Arg'amchiga qil quvvat deydilar. (305-b)
"Ishtonsizning xadigi cho'pdan" to mashina, gurillab tutin qaytarib lagerdan chiqib ketguncha Mirsalimning ichidan qirindi o'tdi. (321-b)
„Ko'ngli ko'tariqligining dardi tez ariydi", deyishadi degan xayol bilan Sodiq jangovar Qizil Bayroq oridenini taqib kelgan edi. (331-b)
"Temirni zang, odamni g'am kemiradi" deb ko'nglidan o'tkazdi Qodir, yalpiz hidi kelib turgan shaftoli qoqidan og'ziga solar ekan. (361-b)
Yomonni balo ham urmaydi. (361-b)
"Nojo'ya chaqilgan bitta gugurt olamni yoritadi-ya!" degan qarorga keldi. (363-b)
Mirsalim ko'chaga Qodir kutib turgandek qanchalik shoshib chiqqan bo'lsa xo'jayinlarining "Shoshib ichsang, sovuq suv ham og'iz kuydiradi!" deganini eslab birdan shunchalik tez hovridan tushdi. (364-b)

Maqollar turli xil mavzularga oid bo'ladi. Ularni o'z o'rnida qo'llash yozuvchining mahoratiga bog'liq. Tilimizda maqollarning soni juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Har bir kitob o'qigan bola ular bilan tanishadi va ma'nolarini anglaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent „Talqin" - 2005
2. Sh. Sariyev Adabiyot (Metodik qo'llanma) Toshkent „Yangi kitob" 2018
3. Sh. Rahmatullayev Hozirgi adabiy o'zbek tili Toshkent „Universitet" 2006